



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	328
Alijonov Ilyosbek Alijonovich	
THE ECONOMIC CHARACTERISTICS OF NON-PERFORMING LOANS AND THEIR IMPLICATIONS FOR BANK OPERATIONAL EFFICIENCY	334
Rustamov Jonibek Ravshanbek o'g'li	
IQTISODIY TARMOQLAR RIVOJIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	341
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
TASHQI SAVDONI BOZOR NAZARIYASI ASOSIDA MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	346
Dilnoza Ochilova Ismoil qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SINERGIK SAMARALARINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	351
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
LOGISTIK TERMINALLAR FAOLIYATINI EKSPERT BAHOLASH USULI ASOSIDA TADQIQ ETISH.....	357
Zohidov Muhriddin G'ofurjon o'g'li	
Jumayev Sherzod Bahrom o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA XIZMATLAR SOHASINING IJTIMOIIQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA HUDUDIIY TAFOVUTLAR DARAJASI.....	367
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Sherzodova Diyora Sherzod qizi	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIQTISODIY OMILLARNING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI STATISTIK BAHOLASH	373
Maxmatqulova Hikoyat G'iyosiddin qizi	
DIGITAL NOMADS AND THE CHANGING FACE OF GLOBAL TOURISM	379
Sirojiddinova Shahrizoda Davronovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	385
Sharipov Tohir Miraximovich	
URGANCH JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINING MURAKKABLIK DARAJASINI BAHOLASH USLUBI	390
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINI KORXONANI HAYOTIIY AYLANISH BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: USLUBNING MOHIYATI.....	395
Muydinov Erkin Djamaldinovich	



HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHDA KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	399
Raximov Jo'rabek Raximovich	
MINTAQQA IQTISODIYOTINI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	405
Mahmatrayimov Shahzod	
HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARIDA RAHBAR KADRLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	410
Bekchanov Davron Masharipovich	
O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA KO'P VEKTORLILIK: XITOIY, ROSSIYA VA G'ARB O'RTASIDA MUVOZANATNI TA'MINLASH STRATEGIYASI	419
Omonova Maxliyo	
Haydarova Malika	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	423
Djalalova Durdona Dilshodbekovna	
QURILISHDAGI IQTISODIY TEJAMKORLIK ASOSIDA LEGO G'ISHT MATERIALLARINI TAHLIL QILISH	427
Askarov Xasanjon	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISH TAJRIBASI	432
Matkarimov Mansur	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	439
Madrakhimov Kakhramon	
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON THE GLOBAL LABOR MARKET.....	445
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Xamrayeva Sevinch Ikromjonovna	
ROBOTLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI: ISH O'RINLARINING QISQARISHI YOKI YANGI KASBLAR TRANSFORMATSIYASI.....	451
Usmonov Farrux Furqatovich	
Azimov Mirsaid Salimovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA NOTARIF CHORALARNI QO'LLASHDA XAVFNI BOSHQARISH TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	456
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
EXAMINING LEADERSHIP DIFFERENCES BETWEEN FEMALE AND MALE MANAGERS.....	460
Dilafruz Kuchkorova	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI MHXS (MOLIYAVIY HISOBNING XALQARO STANDARTI) TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	468
Abdimurodov Baxrom Ochilovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	473
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi	
HUDUDLARDA TURIZMNI IMMERSIV TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	477
Kasimova Yulduz Baxtiyorovna	
DAVLAT TIBBIY SUG'URTASIDA STRATEGIK XARID: PASSIV MOLIYALASHTIRISHDAN STRATEGIK XARIDGA O'TISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	485
Kilichev Fazliddin Usmanovich	
ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА.....	493
Шадманова Мадинахон Омонулла кизи	



ОТ УПРАВЛЕНИЯ МЕРОПРИЯТИЯМИ К УПРАВЛЕНИЮ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ: DATA-INFORMED МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕАУДИТОРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УНИВЕРСИТЕТАХ УЗБЕКИСТАНА.....	501
Сабилов Алишер Саибович	
ИЗУЧЕНИЕ БЮДЖЕТИРОВАНИЯ И КОНТРОЛЯ В ПРОЦЕССЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА В ООО «SATURN METAL»	509
Мусаева Шоира Азимовна	
О'ZBEKISTON IQLIM SHAROITIDA DONADOR O'G'ITLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	518
Boltayev Baxriddin	
О'ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY TURIZM TALABLARIGA MOS TURISTIK RESURSLAR SALOHİYATI	525
Suyunov Alijon	
BOSHQARUV MEKANIZMLARING RAQOBAT STRATEGIYASI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI	530
Islomov Shuhrat Ma'rufjonovich	
Nabiyeva Zumrad Zafarovna	
CRM TIZIMINING NAZARIY-ASOSIY TAMOIYILLARI VA ULGURJI SAVDODA ROLI	536
Islomov Shuhrat Marufjonovich	
Raimova Diyora Botirovna	
INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE TRANSFORMATIONAL MODEL OF THE DIGITAL ECONOMY UNDER GLOBALIZATION	541
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA RAHBAR KADRLAR TAYYORLASHDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGI	551
Xurshida Maxmadaminova	
EKOLOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI BIOIQTISODIYOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	556
Odiljonov Turoopjon Erkinjon o'g'li	
AGRAR SEKTORDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SAMARADORLIGIGA HUDUDIY OPTIMALLASHTIRISH YONDASHUVI	560
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
TABIIY MONOPOL KORXONALARNI BOSHQARISHNING INNOVATION TASHKILIYIQTISODIY MODELINI ISHLAB CHIQISH.....	568
Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH VA IQTISODIY TAHLIL QILISH	575
Shoraximov Shomansur Shomaxmudovich	
KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI	582
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORPORATIV KREDITLASHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	590
Yuzbayeva Shaxsanam Ma'rufovna	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KUTUBXONA TIZIMIDA PLATFORMA JORIY ETISHNING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI	595
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
HUDUDLARDA SOLIQ XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ARIMA MODEL ASOSIDAGI PROGNOZ SSENARIYLARI.....	602
Mamatramov Uchqun Xushmamatovich	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA INNOVATION YANGILIKLARNI QO'LLASH	607
Umaraliyeva Nasiba	



O'ZBEKISTONDAGI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING AHAMIYATI.....	610
Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li	

O'ZBEKISTONDAGI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING AHAMIYATI



Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonida korporativ boshqaruvning o'рни va ahamiyati tadqiq etilgan. Samarali korporativ boshqaruv tizimi investorlar ishonchini mustahkamlash, korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, axborotning shaffofligini ta'minlash hamda xususiylashtirish jarayonlari samaradorligini yuksaltirishning muhim omili sifatida asoslangan. Tadqiqot davomida korporativ boshqaruvning amaldagi holati tahlil qilinib, uni takomillashtirish orqali davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat mulki, davlat ishtirokidagi korxonalar, xususiylashtirish, xususiylashtirish samaradorligi, korporativ boshqaruv, investor, investitsiyaviy jozibadorlik, shaffoflik.

Аннотация. Исследована роль и значение корпоративного управления в процессе приватизации предприятий с государственным участием в Узбекистане. Обосновано, что эффективная система корпоративного управления способствует укреплению доверия инвесторов, повышению инвестиционной привлекательности предприятий, обеспечению прозрачности информации и повышению эффективности процессов приватизации. Проведён анализ современного состояния корпоративного управления, а также разработаны научно-практические предложения, направленные на повышение результативности приватизации предприятий с государственным участием посредством совершенствования механизмов корпоративного управления.

Ключевые слова: государственная собственность, предприятия с государственным участием, приватизация, эффективность приватизации, корпоративное управление, инвестор, инвестиционная привлекательность, прозрачность.

Abstract. The role and significance of corporate governance in the privatization of state-owned enterprises in Uzbekistan are examined. An effective corporate governance system is substantiated as a key factor in strengthening investor confidence, enhancing the investment attractiveness of enterprises, ensuring information transparency, and improving the efficiency of privatization processes. The current state of corporate governance is analyzed, and scientific and practical recommendations are developed to improve the effectiveness of privatization through the enhancement of corporate governance mechanisms.

Keywords: state property, state-owned enterprises, privatization, privatization efficiency, corporate governance, investor, investment attractiveness, transparency.

KIRISH

Maqolaning asosiy maqsadi davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonida korporativ boshqaruvning ahamiyatini baholash hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish va xususiy sektor ulushini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga



oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarda davlat ishtirokidagi korxonalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va ularni xususiyashtirishga samarali tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada korporativ boshqaruv tizimini xalqaro tamoyillar asosida takomillashtirish xususiyashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bilan birga, ayrim davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv tamoyillarini yanada takomillashtirish, axborot shaffofligi va hisobdorlik darajasini oshirish hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini kuchaytirish xususiy investorlarni jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa korporativ boshqaruvning xususiyashtirish jarayonidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zarurligini yanada oshiradi.

Shu munosabat bilan davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish jarayonida korporativ boshqaruvning ahamiyati tahlil qilinib, uni takomillashtirish orqali xususiyashtirish jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Shleyfer davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruv sifatini yaxshilash xususiyashtirish jarayonlarining iqtisodiy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, samarali korporativ boshqaruv investorlar ishonchini oshirish va davlat aktivlarining bozor qiymatini yuksaltirishga xizmat qilishini qayd etgan [1].

U. Megginson va J. Netter xususiyashtirishning davlat korxonalari samaradorligi, korporativ boshqaruv hamda raqobat muhitiga ta'sirini o'rganib, xususiyashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositalaridan biri ekanligini asoslab bergan [2].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv tamoyillarida davlat mulkini boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik, mustaqil kuzatuv kengashlari va samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish xususiyashtirish jarayonlari samaradorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida e'tirof etilgan [3].

J. Qurbonovning tadqiqotlarida davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va xususiyashtirish jarayonlarining moliyaviy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ustav kapitalida xorijiy investorlar ishtirokini kengaytirish hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Muallifning fikricha, mazkur yo'nalishdagi islohotlar davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [4].

T. Jo'rayev davlat aktivlarini boshqarishda korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish xususiyashtirish jarayonlarining natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini qayd etgan [5].

E. Shadmanov va A. Turkmanov O'zbekistonda davlat mulkini xususiyashtirish jarayonlarining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tadqiq etib, xususiyashtirish davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy sektorni rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yanada yaxshilashning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar [6].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda korporativ boshqaruvning umumiy masalalari va xususiyashtirish jarayonlari alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro bog'liqligi, ayniqsa, O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish samaradorligiga ta'siri hali yanada chuqur va kompleks o'rganishni talab etadi. Mazkur maqolada ushbu ilmiy yo'nalishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotni amalga oshirishda davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish jarayonida korporativ boshqaruvning ahamiyatini baholash maqsadida qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, korporativ boshqaruv va xususiyashtirish sohasiga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga oid rasmiy ma'lumotlar va statistik ko'rsatkichlar o'rganildi hamda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvning amaldagi holati, uning investorlar ishonchini mustahkamlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda xususiyashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishdagi ahamiyati baholandi. Tahlil natijalari asosida davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish va undan xususiyashtirish jarayonlarida samarali foydalanishga doir ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonida korporativ boshqaruvning ahamiyatini tahlil qilishdan oldin davlat mulkini xususiylashtirish tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Chunki korporativ boshqaruv tizimi xususiylashtirish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.



Davlat mulkini xususiylashtirish – davlatga tegishli mol-mulk va boshqa aktivlarni qonunchilik talablari doirasida jismoniy va nodavlat yuridik shaxslar mulkiga o'tkazish jarayonidir. Ushbu jarayonda davlat mulki xususiylashtirish shakliga aylantiriladi hamda undan foydalanish va uni boshqarish huquqi xususiylashtirish mulkdorga o'tadi.

Korporativ boshqaruv esa korxona faoliyatini samarali tashkil etish, uni boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, qarorlar qabul qilishda ochiqlik, shaffoflik hamda manfaatdor tomonlar manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv tizimidir.

O'rganishlar natijalariga ko'ra, davlat mulkini boshqarish amaliyoti bir vaqtning o'zida quyidagi uchta yo'nalishda amalga oshirilishi aniqlandi.

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlatning ta'siri asosan ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi.

• **Birinchi yo'nalish:** davlatning mulkdor sifatidagi ishtiroki bo'lib, u davlat ulushi orqali korxonaning strategik rivojlanishi, dividend siyosati, rahbariyatni tayinlash, yirik bitimlarni tasdiqlash hamda qayta tashkil etish kabi muhim korporativ qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi.

• **Ikkinchi yo'nalish:** davlatning tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organ sifatidagi funksiyalari bilan bog'liq bo'lib, litsenziyalash, davlat xaridlari, audit, raqobat muhitini ta'minlash, tariflar, hisobdorlik va boshqa huquqiy mexanizmlar orqali korxonalar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni tahlil qilishda davlat nomidan mulkdorlik vakolatini amalga oshiruvchi subyektlarni ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda davlatning mulkdorlik funksiyasi asosan quyidagi subyektlar orqali amalga oshiriladi:

• Davlat aktivlarini boshqarish agentligi – davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish sohasidagi vakolatli organ;

• Vazirlar Mahkamasi – davlat ishtirokidagi yirik korxonalar bo'yicha strategik qarorlarni qabul qiluvchi organ;

• Tartibga soluvchi organlar – tegishli sohalarda davlat siyosati, nazorat va huquqiy tartibga solish vazifalarini amalga oshiruvchi organlar;

• Korporativ boshqaruv organlari – aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi orqali korxonaning kundalik hamda strategik boshqaruvini ta'minlovchi tuzilmalar.


Davlat aktivlari agentligining **2025-yilgi** hisobotiga muvofiq, davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat korxonalari tashkiliy-huquqiy shakli (jami – **36 112 ta**) quyidagicha:

• aksiyadorlik jamiyatlari – **251 ta** (25 foizgacha – 46 ta, **25–50 foizgacha** – 40 ta, **51–99 foizgacha** – 130 ta, 100 foiz – 35 ta);

• mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – **1 422 ta** (25 foizgacha – 119 ta, **25–50 foizgacha** – 141 ta, **51–99 foizgacha** – 605 ta, 100 foiz – 557 ta);

• davlat unitar korxonalari – **315 ta**;

• davlat muassasalari – **34 124 ta (1-rasm)**.



1-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili [7].

1-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, **2021–2025-yillarda** davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari soni **231 tadan 251 tagacha** biroz oshgan bo'lsa, davlat unitar korxonalari soni **893 tadan 315 tagacha** kamaygan. Mazkur holat davlat ishtirokidagi ayrim korxonalarning qayta tashkil etilgani hamda xususiylashtirish jarayonlari doirasida bozor munosabatlariga mos tashkiliy-huquqiy shakllarga o'tkazilganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **1 020 tadan 1 422 tagacha** oshgan. Muallif tomonidan aniqlanishicha, mazkur o'zgarishlar davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish va ularni xususiylashtirishga tayyorlash ishlari izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Natijada korxonalarning boshqaruv samaradorligi va investitsiyaviy jozibadorligi ortib, xususiylashtirishni jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Alohida ta'kidlash lozimki, korporativ boshqaruv davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Samarali boshqaruv tizimi axborot shaffofligini ta'minlaydi, investorlar ishonchini oshiradi hamda korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytiradi. Natijada davlat mulklarini raqobatli muhitda va bozor qiymatida sotish imkoniyatlari kengayadi.

Bundan tashqari, xususiylashtirish jarayonlarining natijadorligini baholash maqsadida **2021–2025-yillarda** davlat mulklarini xususiylashtirish va undan tushgan tushumlar dinamikasi o'rganildi.

1-jadval
Davlat mulklarini xususiylashtirish va undan tushgan tushum [8]

Yil	Savdoga chiqarilgan aktivlar, trln. so'm	O'sish (%)	Sotilgan aktivlar, trln. so'm	O'sish (%)	Davlat aktivlarini sotishdan tushum, trln. so'm	O'sish (%)
2021-yil	5,7	–	7,3	–	3,7	–
2022-yil	15,6	173 %	11,3	55 %	6,6	78 %
2023-yil	20,9	34 %	11,4	1 %	9,6	45 %
2024-yil	23,4	12 %	17,4	53 %	9,8	2 %
2025-yil	41,0	75 %	29,8	71 %	11,0	12 %

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, **2021–2025-yillarda** davlat mulklarini xususiylashtirish hajmi va undan tushgan tushumlar izchil o'sib borgan.



2022-yil bo'yicha. 2022-yilda savdoga chiqarilgan davlat mulklari hajmi **2021-yilga** nisbatan **173 foizga** oshgani davlat ishtirokini qisqartirish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan islohotlar natijasida xususiylashtirishga chiqarilgan aktivlar hajmi kengayganini ko'rsatadi.

2023-yil bo'yicha. 2023-yilda savdoga chiqarilgan aktivlar hajmi o'sishda davom etgan bo'lsa-da, sotilgan aktivlar hajmi deyarli o'zgarmagan, tushumlar esa **45 foizga** oshgan. Bu xususiylashtirilgan ayrim aktivlarning yuqoriq bozor qiymatida sotilganini hamda sotuvlar samaradorligi oshganini anglatadi.

2024-yil bo'yicha. 2024-yilda sotilgan aktivlar hajmi **53 foizga** oshgan bo'lsa-da, tushumlar o'sishi **2 foizni** tashkil etgani xususiylashtirishga ko'proq obyektlar jalb qilinganini, biroq ularning o'rtacha sotilish qiymati oldingi yilga nisbatan sezilarli darajada oshmaganini ko'rsatadi.

2025-yil bo'yicha. 2025-yilda savdoga chiqarilgan aktivlar hajmi **75 foizga**, sotilgan aktivlar hajmi esa **71 foizga** oshgani davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonlari yanada faollashganini hamda davlat aktivlarini bozorga chiqarish ko'lami sezilarli darajada kengayganini anglatadi. Bu esa davlat ishtirokini qisqartirish va xususiylashtirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasini ifodalaydi.

Shu o'rinda, **1-jadvaldagi** o'sishga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv mexanizmlarining bosqichma-bosqich takomillashtirilayotganini qayd etish mumkin. Chunki korporativ boshqaruvning samarali yo'lga qo'yilishi korxona faoliyatining ochiqqligi va shaffofligini oshiradi, investorlarning ishonchini mustahkamlaydi hamda korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytiradi.

Natijada xususiylashtirish jarayonida investorlar o'rtasidagi raqobat kuchayadi va davlat aktivlarini bozor qiymatiga yaqin narxlarida sotish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirishga, xususiylashtirish jarayonlarining samaradorligini oshirishga hamda davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish samaradorligini oshirishda korporativ boshqaruv tizimi muhim institutsional omillardan biri ekanligini ko'rsatdi.

Mamlakatimizda **2021–2025-yillarda** davlat ishtirokidagi korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllarida sezilarli o'zgarishlar yuz bergani hamda davlat mulklarini xususiylashtirish hajmi kengaygani kuzatildi. Mazkur jarayonlarda korporativ boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish, kuzatuv kengashlarining mustaqilligini ta'minlash hamda investorlar uchun ochiq axborot bazasini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Shunga ko'ra, korporativ boshqaruvni xususiylashtirishdan oldingi tayyorgarlik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv davlat ishtirokidagi korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, investorlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish hamda davlat mulklarini bozorda samarali sotish uchun mustahkam institutsional asos yaratishga xizmat qiladi.

Muallif tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirishdan oldin korporativ boshqaruv tizimini baholash va uni takomillashtirishni xususiylashtirishga tayyorgarlikning majburiy bosqichlaridan biri sifatida joriy etish taklif etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shleifer A. State versus Private Ownership // *Journal of Economic Perspectives*. – 1998. – Vol. 12, No. 4. – P. 133–150.
2. Megginson W. L., Netter J. M. From State to Market: A Survey of Empirical Studies on Privatization // *Journal of Economic Literature*. – 2001. – Vol. 39, No. 2. – P. 321–389.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises. – Paris: OECD Publishing, 2024.
4. Qurbonov J. Directions of Promoting Small Businesses in Industry Sector // *International Finance and Accounting*. – 2018. – Vol. 2018. – No. 2. – P. 119.
5. Jo'rayev T. Davlat aktivlarini boshqarishda korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish // *Biznes-ekspert* ilmiy-iqtisodiy jurnali. – Toshkent, 2023. – № 4.
6. Shadmanov E., Turkmanov A. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri // *Green Economy and Development*. – 2025. – Vol. 3. – No. 1.
7. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. 2025-yilgi hisobot. – URL: https://api-portal.gov.uz/uploads/62/2026/03/03/a91a99da-3580-9c19-71f5-a5052cab4b6e_media36233.pdf (murojaat qilingan sana: ..2026).
8. Muallif tomonidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yilgi hisoboti asosida tayyorlandi.



9. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
10. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-6401697>
11. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RQ-907-son Qonuni: <https://lex.uz/ru/docs/-6800515>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>